

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

**O‘TKIR HOSHIMOV ASARLARIDA AFORIZMLAR VA ULARNING PRAGMATIK
XUSUSIYATLARI**

Xodjayeva Munis Salimjonovna

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

xodjayevamunisa@gmail.com

Annotasiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimov asarlarida uchraydigan aforizmlar va ularning pragmatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Muallif ijodidagi aforizmlar o‘zining chuqur ma’no qatlamlari, xalqona ohangi va ijtimoiy-hayotiy mazmuni bilan alohida ajralib turadi. Tadqiqotda ularning kommunikativ vazifalari, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarini aks ettirishdagi o‘rni hamda o‘quvchiga ta’sirchanlik darajasi lingvopragmatik nuqtayi nazardan o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: O‘tkir Hoshimov, aforizm, pragmatika, lingvokulturologiya, badiiy matn, nutqiy ta’sir.

Аннотация: В данной статье рассматриваются афоризмы в произведениях Ўткира Хошимова и их прагматические особенности. Афоризмы в его творчестве отличаются глубиной смысла, народным колоритом и социально-бытовой значимостью. В исследовании анализируются их коммуникативные функции, роль в отражении духовных ценностей общества, а также степень воздействия на читателя с точки зрения лингвопрагматики.

Ключевые слова: Ўткир Хошимов, афоризм, прагматика, лингвокультурология, художественный текст, речевое воздействие.

Annotation: This article examines aphorisms in the works of O‘tkir Hoshimov and their pragmatic features. The aphorisms in his writings stand out for their depth of meaning, folkloric tone, and socio-cultural relevance. The study focuses on their communicative functions, their role in reflecting moral and cultural values, and their impact on readers from a linguo-pragmatic perspective.

Keywords: O‘tkir Hoshimov, aphorism, pragmatics, linguoculturology, literary text, speech influence.

Kirish. Rivojlanib borayotgan tilshunoslikning taraqqiy etishida til faktlari tadqiqiga turlicha yondashilgan. Jumladan, nutq faoliyati bilan bog‘liq masalalarni o‘rganish asosiy faktlarni yuzaga chiqaradi. Har bir yondashuv muayyan bosqichlardan iborat bo‘libular o‘z amonasida yangilik sifatida namoyon bo‘lish bilan birga keyingi davr uchun ilmiy asos vazifasini bajaradi.

Insonning nutqiy faoliyati bilan bog‘liq masalalar lisoniy ta’limotning asosi sanaladi. Zamonaviy tilshunoslik ekstralingvistika, intralingvistika va kompravativistika tarmoqlaridan iborat bo‘lib bularning barchasida inson nutqiy faoliyati o‘rganiladi. Bizga ma’lumki nutqda insonning fikri bilan birga ruhiy olami ham o‘z ifodasini topadi. Tilshunoslikning pragmalingvistika sohasi shuni ta’kidladiki, nutqdagi barcha hodisalar nutqiy akt orqali yuzaga chiqadi. Nutqda milliylik, yashirin, oshkor, stress, ruhiy bosim, ruhiy ko‘tarinkilik, sabrsizlik, sovuqqonlik, mentalitet, urf-odatlar yuzalanadi. Nutq keng jabhalarni o‘ziga qamrab olishini ko‘zda tutgan holda psixolingvistika, sotsiolingvistika, lingvistik geografiya, kommunikativ tilshunoslik, neyrolingvistika, mentolingvistika kabi sohalar bilan chambarchas bog‘liq ekanini ta’kidlamay ilojimiz yo‘q.

Pragmalingvistika muloqot jarayonini, bu jarayondagi lisoniy va nolisoniy omillar uyg'unligini, muloqot birliklarining munosabat ifodalashi, ta'sir etishi, matnda shaxsga va muloqotga oid baholash kategoriyasining ifodalanishi, bu borada til birliklarining samaradorligi masalalarini o'rganadi. Til birliklarining pragmatik funksiyalari, ayniqsa, jonli muloqot jarayonida turli nutqiy vaziyatlar muloqot xulqi turlari qurshovida to'liq aks topadi

So'nggi yillarda jahon tilshunosligidagi kabi o'zbek tilshunosligida ham matn pragmatikasiga e'tibor qaratib kelinmoqda. Matn-axborot almashishning birligi va u asosan shu vazifani bajarish uchun xizmat qilishi, shunday ekan, uning mazmuni ham muloqot va axborot almashinuvi kabi vazifalarning uyg'unlashuvini taqozo qilishi, matn mazmunida denotativ qismning kommunikativ maqsad va pragmatik mo'ljal bilan moslashuvi masalasiga alohida e'tibor qaratadi.

Pragmalingvistikani yuzaga keltiruvchi asosiy faktor bu nutqiy muloqot va kommunikativ jarayon hisoblanadi. Nutq esa individual bo'lib insonlar yashashi, millati, urf-odatlar, mentalitetlari, geografik joylashishlari, shevalariga ko'ra turlicha bo'ladi. Ayrim shevalarda o'zining salbiy ma'nosiga ega so'zlar ba'zi hududlarda salbiylik aks etmaydigan so'zlar qatoriga kiritilgan bo'ladi.

Quyida o'zbek adabiyotining qalami o'tkir yozuvchisi O'tkir Hoshimovning **“Ikki eshik orasi”** romanida qo'llanilgan hikmatli so'zlar pragmatikasini ko'rib chiqamiz: **“Baqalarni aytmysizmi? Bir-biridan qolsa, qulog'ini kesadigandek ovozi boricha vaqillaydi”**.

O'zbek milliy maqollaridan biri “Eshak eshakdan qolsa qulog'ini kes” varianti ham uchraydi. Bu bilan yozuvchi baqalarning teng vaqillashini maqol orqali yuzalantirib bergan. Har qanday kitobxon shovqin solayotgan baqalarni tasavvur qilishida maqol katta o'rin tutgan.

Har bir zamonning o'ziga xos maqollari bo'ladi. Maqollar zamonlar osha yangilanadi. **“Arpa bug'doy osh bo'lur oltin kumush tosh bo'lur”** maqoli ham bu maqolning bir ko'rinishi hisoblanib, urush davrlarida zeb-u ziynat kabi narsalarning qadri yo'qolib, oziq-ovqat taqchilligi hisobiga odamlar faqat qorin to'ydirish g'amida yashaganlar.

O'zbek xalqi mehmondo'st bo'lganligi sababli bu maqolni tilshunos olimlar turlicha talqin qilishadi. **“Ustoz otangdek ulug'”, “Mehmon otangdek ulug'”** kabi. Otalar oila uchun tirkak, boshliq hisoblanganligi uchun doimo uyni to'ridan joy olishadi. Mehmon ham shu maqomga qo'yilgani uchun ham uyni to'ri va eng yaxshi narsalar mehmon uchun hozirlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yozuvchi O'tkir Hoshimov o'zining **“Ikki eshik orasi”** romanida o'zbek xalq maqollari orqali pragmalingvistikaning barcha ko'rinishlarini aks ettirib bergan. Bu esa asarni leksik-semantik jihatdan yanada boyitib kitobxon uchun ta'sir ko'lamini keng, teran anglashiga yordam bergan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Hakimov. M.Gaziyeva Pragmalingvistika asoslari. Toshkent. 2020. 25-b
2. N.Qozoqova. Badiiy matn pragmatikasi. Namangan. 2022. 14-b
3. S.Boymirzayeva O'zbek tilida matnning kommunikativ -pragmatik mazmunini shakllantiruvchi kategoriyalar: Filologiya fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. -Toshkent, 2010.-49 b.

INTERNATIONAL CONFERENCE
“Global Horizons in Philology and Pedagogy: Experiences of Turkic Nations”
September 25, 2025

4. S.Mo‘minov O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari.Filol fanlari d-ri diss Toshkent.2000.-19 b
5. O‘tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi Toshkent- 2019. 19-b
6. O‘tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi Toshkent -2019. 41-b
7. O‘tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi Toshkent -2019. 42-b
8. O‘tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi Toshkent -2019. 56-b
9. O‘tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi Toshkent -2019. 57-b
10. O‘tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi Toshkent- 2019. 59-b
11. O‘tkir Hoshimov .Ikki eshik orasi Toshkent -2019. 62-b